



**COVID-19 O'TKAZGAN BEMORLARDA GIPOTALAMO-GIPOFIZAR
TIZIM ASORATLARI**

Shoyimova Shaxzoda Bobosher qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Unversiteti talabasi

shoyimovashaxzoda3@gmail.com

Mardanova Muxlisa Komilovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Unversiteti talabasi

Mmuxlisa599@gmail.com

Xayrullayev Po'latjon Asadulloxon o'g'li

Samarqand Davlat Tibbiyot Unversiteti talabasi

xayrullayevpolatjon@gmail.com

Erkinov Akbar Adxam o'g'li

Samarqand Davlat Tibbiyot Unversiteti talabasi

akbarerkinov2003@gmail.com

Arazdurdiyeva Saxra Enver qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Unversiteti talabasi

saxraenverovna@gmail.com

ANNOTATSIYA: COVID-19 pandemiyasi nafaqat o'tkir infeksiya sifatida, balki uzoq muddatli asoratlar bilan ham xarakterlanadi. Kasallikdan so'ng bemorlarda gipo talamo-gipofizar tizimning funksional buzilishlari kuzatilishi mumkin, bu esa endokrin va metabolik o'zgarishlarga olib keladi. Ushbu maqolada COVID-19 o'tkazgan bemorlarda gipotalamo-gipofizar tizim patologiyasiga xos klinik va gormonal o'zgarishlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda asoratlar bilan kechgan bemorlarning klinik holati, ularning gormonal profili hamda magnit-rezonans tomografiya natijalari taqqoslanadi. Shuningdek, profilaktika va davolash yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: COVID-19, gipotalamo-gipofizar tizim, endokrin asoratlar, gormonal buzilishlar, uzoq muddatli COVID.

АННОТАЦИЯ: Пандемия COVID-19 характеризуется не только острым течением инфекции, но и долгосрочными последствиями. После перенесённого заболевания у пациентов могут наблюдаться функциональные нарушения гипоталамо-гипофизарной системы, что приводит к эндокринным и метаболическим изменениям. В данной статье анализируются клинические и гормональные изменения, характерные для патологии гипоталамо-гипофизарной системы у пациентов, перенёсших COVID-19. Проводится сравнительный анализ состояния пациентов с осложнениями, их гормонального профиля и результатов магнитно-резонансной томографии. Также представлены рекомендации по профилактике и лечению.



Ключевые слова: COVID-19, гипоталамо-гипофизарная система, эндокринные нарушения, гормональный дисбаланс, долгосрочный COVID.

ABSTRACT: *The COVID-19 pandemic is characterized not only by acute infection but also by long-term consequences. After the disease, patients may develop functional disorders of the hypothalamic-pituitary system, leading to endocrine and metabolic changes. This article analyzes clinical and hormonal changes characteristic of hypothalamic-pituitary pathology in patients who have recovered from COVID-19. The clinical condition of patients with complications, their hormonal profiles, and magnetic resonance imaging findings are compared. Recommendations for prevention and treatment are also provided.*

Keywords: *COVID-19, hypothalamic-pituitary system, endocrine disorders, hormonal imbalance, long COVID.*

MAVZUNING DOLZARBLIGI

COVID-19 infeksiyasi nafaqat nafas olish tizimiga, balki endokrin tizimga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Gipotalamo-gipofizar tizim faoliyatining buzilishi gormonal muvozanatning izdan chiqishiga olib kelib, semirish, arterial gipertoniya, psixologik va reproduktiv buzilishlar kabi asoratlarni keltirib chiqaradi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 700 milliondan ortiq aholi COVID-19 bilan kasallangan bo'lib, ularning katta qismida uzoq muddatli asoratlar qayd etilmoqda. Shu sababli COVID-19 o'tkazgan bemorlarda endokrin tizim, xususan gipotalamo-gipofizar tizim asoratlarini o'rganish va ularni erta aniqlash dolzarb hisoblanadi.

TADQIQOT MAQSADI

COVID-19 o'tkazgan bemorlarda gipotalamo-gipofizar tizim asoratlarini klinik, gormonal va instrumental usullar yordamida o'rganish, erta tashxislash va davolash yo'nalishlarini ishlab chiqish.

MATERIAL VA USULLAR

Tadqiqotga COVID-19 o'tkazgan va endokrin asoratlar (semirish, arterial gipertoniya, amenoreya, ginekomastiya, psixologik buzilishlar) bilan shikoyat qilgan 30 nafar bemor, shuningdek 15 nafar sog'lom nazorat guruhi ishtirokchilari kiritildi. Bemorlarning yoshi 17–25 yosh oralig'ida bo'lib, kasallik 8–9 oy avval o'tkazilgan.

Tadqiqotda quyidagi tekshiruvlar amalga oshirildi:

klinik ko'rik;

gormonal tahlillar (prolaktin, TSH, T4, kortizol);

magnit-rezonans tomografiya (MRT)

NATIJALAR

Tekshiruv natijalariga ko'ra, bemorlarda gipofiz patologiyasiga xos klinik belgilar aniqlandi. Xususan, semirish (tana massasi indeksi 35–40 va undan yuqori), arterial gipertoniya (7 nafar bemorda, o'rtacha 130/90 mmHg), Cushing sindromiga o'xshash belgilar (oysimon yuz, qizil striyalar, amenoreya, ginekomastiya) kuzatildi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Gormonal tahlillarda prolaktin darajasi o'rtacha $28 \pm 2,3$ ng/ml ni tashkil etdi, nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich $4,04 \pm 1,52$ ng/ml doirasida bo'ldi. MRT natijalarida ayrim bemorlarda intrakranial bosim oshishi, shuningdek 2 nafar bemorda gipofiz mikroadenomasi aniqlandi.

XULOSA

COVID-19 o'tkazgan bemorlarda gipotalamo-gipofizar tizimning funksional buzilishlari uzoq muddatli endokrin asoratlarga olib kelishi mumkin. Ushbu asoratlarni ko'pincha kasallik boshlanganidan 8–9 oy o'tgach namoyon bo'ladi. Bemorlarni muntazam endokrin monitoringdan o'tkazish, gormonal tahlillarni nazorat qilish va zarur hollarda MRT tekshiruvini o'tkazish muhim ahamiyatga ega.

PROFILAKTIKA VA TAVSIYALAR

COVID-19 o'tkazgan bemorlarda endokrin asoratlarni erta aniqlash maqsadida muntazam tibbiy ko'rikdan o'tish, gormonal tahlillarni o'tkazish, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, stressni boshqarish hamda zarur hollarda endokrinolog nazorati ostida gormonal terapiya qo'llash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бутрова С.А., Мельниченко Г.А. Эндокринология: национальное руководство. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2020. – 1152 с.
2. Dedov I.I., Melnichenko G.A., Fadeev V.F. Endocrinology. – Moscow: GEOTAR-Media, 2021. – 864 p.
3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. COVID-19: klinik protokollar va uslubiy tavsiyalar. – Toshkent, 2022. – 480 b.
4. Karamitrov I.R., Yusupova M.A. Gipotalamo-gipofizar tizim patologiyasi va diagnostikasi. – Toshkent, 2022. – 320 b.
5. World Health Organization. Clinical management of COVID-19. – Geneva, 2023.
6. Pal R., Banerjee M. COVID-19 and Endocrine Disorders. – Springer, 2022.
7. Tursunov B.T., Xudoyberdiyeva D.A. Infekcion kasalliklar va endokrin tizim. – Toshkent, 2021.
8. Lania A., Sandri M.T. Endocrine Implications of COVID-19. – Elsevier, 2023.